

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA DIDAKTIK O'YINLAR ASOSIDA
INGLIZ TILINI SAMARALI O'RGATISH

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Xoldorova Nozima Axmadjon qizi

Annotatsiya: Quyidagi tezisda ingliz tilini maktablarda o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanishning samaradorligi haqida so'z boradi. Maktablarda dars jarayoniga mos holatda didaktik o'yinlarni olib kirish va foydalanish o'quvchilar darslarni o'zlashtirish darajalariga ta'siri keng yoritilgan. Shu bilan birga didaktik o'yinlarning turlari va ahamiyati haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: o'yin, metod, didaktika, zamonaviy o'qitish, ta'lif texnologiyalari.

Аннотация: В следующей диссертации обсуждается эффективность использования дидактических игр в преподавании английского языка в школах. Широко освещается влияние внедрения и использования дидактических игр в школах в подходящей манере в процессе урока на уровень усвоения уроков учащимися. В то же время обсуждаются типы и значение дидактических игр.

Ключевые слова: игра, метод, дидактика, современное обучение, образовательные технологии.

Abstract: The following thesis discusses the effectiveness of using didactic games in teaching English in schools. The impact of introducing and using didactic games in schools in a suitable manner in the lesson process on the level of mastery of lessons by students is widely covered. At the same time, the types and importance of didactic games are discussed.

Keywords: game, method, didactics, modern teaching, educational technologies.

Zamonaviy ta'lif tizimida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularda mustaqil fikrlash va erkin muloqot ko'nikmalarini shakllantirish asosiy maqsadlardandir. Shu nuqtai nazardan didaktik o'yinlar o'zining samaradorligi, interaktivligi va psixologik moslashuvchanligi bilan ta'lif jarayonida keng qo'llanilmoqda. Ular orqali o'quvchilar o'rgatilayotgan tilni

nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o‘zlashtira boshlaydilar, bu esa ularning muloqotga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.

Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonida samarali vosita sifatida qaralgan. Xususan, o‘yinlar o‘quvchilarda bilimni o‘zlashtirishda ijobiy natijalar ko‘rsatmoqda. O‘yin metodikasi bo‘yicha muhim ishlarni A.V. Karpov (1999) va S.L. Rubinstein (2005) olib borgan. Ular o‘quv jarayonida o‘yinlarning psixologik asoslarini tadqiq etgan va o‘yinlarni ta’lim jarayoniga qo‘llashning ijobiy tomonlarini ta’kidlagan. Shuningdek, Wright, Betteridge & Buckby (2006) o‘zlarining 'Games for Language Learning' nomli asarida, ingliz tilini o‘rgatishda o‘yinlar orqali o‘rganish samaradorligini ta’minlashni o‘rgatgan.

Didaktik o‘yinlarning asosini konstruktivistik ta’lim nazariyasi tashkil etadi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi o‘z bilimini faoliyat davomida, ya’ni amaliy ishtirok orqali egallaydi. O‘yinlar orqali esa aynan mana shu faol ishtirok kuchayadi. Shuningdek, psixologik jihatdan ham kichik yoshdagi bolalar uchun o‘yin tabiiy faoliyat shakli bo‘lib, bu orqali ularda stress, qo‘rquiv, yoki til o‘rganishga nisbatan begonalik hislari kamayadi. Ushbu yondashuv Lev Vygotskiy va Jerome Bruner kabi psixologlarning ijtimoiy-kognitiv rivojlanish nazariyalari bilan hamohangdir.

Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘yin shaklida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning e’tiborini ushlab turadi, ularni darsga faol jalg qiladi, shuningdek, ularning bilimni yodda saqlab qolish ko‘nikmasini kuchaytiradi. Misol uchun, Namangan viloyatidagi ayrim maktablarda o‘tkazilgan eksperimental darslar natijalariga ko‘ra, o‘yin asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda qatnashgan o‘quvchilarning so‘z boyligi, grammatika va talaffuz ko‘nikmalarini an’anaviy darslardagi tengdoshlariga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan.

Bundan tashqari, British Council tomonidan Markaziy Osiyoda olib borilgan tahlillarga ko‘ra, ingliz tilini o‘rganishda o‘yin elementlaridan foydalangan o‘quvchilar o‘rganilgan materialni qayta tiklashda yuqori natijalarga erishgan. Ularning darsga ishtirok darjasini yuqori bo‘lgan va tilni amalda qo‘llashga bo‘lgan ishonchi oshgan. Shuningdek, World Bank tomonidan 2021-yilda o‘tkazilgan kuzatuvlarda ham o‘yin

asosida olib borilgan darslarda o‘quvchilarning darsga doimiy va faol qatnashuvi qayd etilgan.

Didaktik o‘yinlar juda ko‘p shakllarda bo‘lishi mumkin: masalan, “Word Race” – so‘z boyligini rivojlantiruvchi tezkor o‘yin, “Grammar Detective” – grammatik xatolarni topishga yo‘naltirilgan topshiriq, yoki “Role Play” – muloqot va real hayotiy vaziyatni jonlantirish orqali til ko‘nikmalarini kuchaytiruvchi faoliyat. Har bir o‘yin o‘zining aniq maqsadi va strukturasi orqali o‘quvchilarning tilga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Bunday faoliyatlarda o‘qituvchining roli alohida ahamiyat kasb etadi. U nafaqat o‘yin qoidalarini tushuntiruvchi, balki motivatsiya beruvchi, muhitni boshqaruvchi, va o‘quvchilar orasidagi muloqotni faollashtiruvchi yetakchiga aylanadi. O‘yinlar muvaffaqiyatli o‘tishi uchun o‘qituvchidan puxta tayyorgarlik, didaktik materiallarning sifatli tanlanishi, va eng muhim o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish talab etiladi.

Didaktik o‘yinlardan foydalanish natijasida o‘quvchilarda o‘zaro hamkorlik, ijodiy fikrlash, muammo yechish ko‘nikmalari shakllanadi. Ular tilni o‘rganishda faqat bilim egallashni emas, balki uni qo‘llay olishni, ya’ni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni asosiy maqsad sifatida qabul qiladilar. Bu esa til o‘rganishning eng muhim bosqichidir.

Didaktik o‘yinlar orqali o‘rganish – bu nafaqat o‘quvchilarda til o‘rganishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, balki ularning muloqotda faol ishtirok etishini ham ta’minlaydi. O‘yin shakli o‘quv materialini osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni keltirib chiqaradi va hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘yinlar orqali darslarni qiziqarli va samarali tarzda o‘tkazish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o‘yinlar orqali ingliz tilini o‘rgatish metodikasi maktab o‘quvchilari uchun nihoyatda mos va samarali hisoblanadi. Didaktik o‘yinlardan foydalanish ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish va mustahkamlashda

samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda dars jarayonlarini yanada samarali tashkil etish uchun bu kabi yondashuvlarni muntazam tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv dars jarayonini jonlantiradi, tilga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va bilimlarning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu metodni keng joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va o‘yinlarning o‘quv dasturiga integratsiyalashuvi orqali ingliz tilini o‘rganish darajasini sezilarli oshirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.

British Council Uzbekistan: Annual Report, 2023.

3. Hasanov J. Didaktik o‘yinlar orqali ta’lim samaradorligini oshirish. – Toshkent, 2021.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hisobotlari, 2023.

2. BRichards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.

5. World Bank. Uzbekistan Education Sector Analysis, 2021.

6. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.

7. Bruner, J. The Culture of Education. – Harvard University Press, 1996.